XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 31 - mart VI-67-44-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumanidagi nomlari o‘zgargan va davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan ko‘chalar nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-modda; 2017-y., 35-son, 914-modda)ning 10-moddasi, Respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 10-fevraldagi 01-14-136-sonli va 01-14-137-sonli xulosa xatlari hamda tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kitob tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 10-fevraldagi 01-14-136-sonli va 01-14-137-sonli xulosa xatlari hamda tuman hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Kitob tumanidagi nomlari o‘zgargan va davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan ko‘chalar nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o‘zgargan va davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan ko‘chalar nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Kitob tumanidagi tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga nomi o‘zgargan va davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan ko‘chalar nomlanishi bo‘yicha aholi

o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Tog‘ayev) nomlari o‘zgargan va ekspertizadan o‘tkazilgan ko‘chalar nomlarining o‘zgarganlik holatini inobatga olsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi nashrida chop etilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlar Kitob tuman Kengashi raisi



Zakirov.A.I

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-67-44-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanidagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan nomlari o‘zgargan ko‘chalar

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan hududi	Davlat ekspertizasi tasdiqlagan nom
1.	Ko‘cha	Ulug‘bek MFY	Xovar (oldingi nomi Beltepa)
2.	Ko‘cha	Sohibkor MFY	Otabek Muhammadiyev (oldingi nomi Vatanparvar)
3.	Ko‘cha	Parchakent MFY	Abdihalim Toshqulov (oldingi nomi Xo‘jailg‘or)